

## MAQOLLARNING ETNOLINGVISTIK VA LINGVOMADANIY BIRLIK SIFATIDAGI TAHLILI

**Abduraxmonova I.**

*Termiz davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

### **Annotatsiya**

*Mazkur maqolada maqollarning xalq tarixi va madaniyatining ifodachisi sifatida gi maqomi haqida fikrlar bildirilib, ularning ayrim etnolingvistik va lingvomadaniy jihatlarini qisqacha tahlilga tortilgan. Shuningdek, maqollarning til birligi, xalqona ijod namunasi sifatidagi ta'riflari ham keltirib o'tilgan. Mazkur birlik bo'yicha tadqiqotchilarning fikrlari keltirilib, munosabat bildirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *xalq og'zaki ijodi, leksik qatlam, paremiologik birlik, maqol, ibora, turg'un birikma, etnolingvistik, lingvomadaniy.*

Ma'lumki, til kishilar o'rtasidagi eng muhim aloqa vositasi, jamiyat tafakkurining rivojlanishini ta'minlovchi, avloddan avlodga madaniy - ma'naviy shu bilan birga tarixiy an'analarni yetkazuvchi, asosiy fikr almashinish quroli hisoblanadi. Til milliy madaniyatning xazinasi hamdir. Har bir millat yashayotgan joyning iqtisodiy - ijtimoiy tuzumi, san'ati, madaniyati, badiiy adabiyoti, urf – odati, xalq og'zaki ijodini jamlab uni avloddan avlodga yetkazib berish tilning milliy – madaniy semantikasidir. Semantika tilning barcha qatlamlarida: grammatikasida, leksikasida, fonetikasida ham mavjud. Ammo milliy madaniy semantika tilning harakatdagi birliklarida juda aniq namoyon bo'ladi. Bunday til birliklari so'zlar va barqaror birikmalardir. Nutq jarayonida fikrimizni faqat so'zlar yordamida emas balki, ikki yoki undan ortiq so'zlarning barqaror bog'lanishidan hosil bo'lgan, nutqqa tayyor holda kirib kelgandigan birliklardan ham foydalanamiz<sup>41</sup>. Bunday birliklar paremlar va frazeologizmlar hisoblanib, xalqning madaniy jihatlarini o'zida ifoda etishi bilan ahamiyatlidir. Xususan, maqollar o'zida madaniy kod va madaniy sema ifodalashi nuqtayi nazaridan bu borada faoldir.

Xalq og'zaki ijodining noyob namunasi hisoblangan maqolda insonning hayotiy tajribalari, atrofdagilarga munosabati, o'tmishi, ichki dunyosi va kechinmalari mujassamlashgan<sup>42</sup>. Misol uchun, "Onasini ko'rib qizini ol" maqolida qizning tarbiyasi, ro'zg'or tutishi, muomala madaniyati shakllanishida onaning o'rni katta ekanligi xalqning uzoq yillik tajribalari asosida chiqargan xulosalariga asoslanadi. Kelin tanlashda qizning nasl-nasabini surishtirish bilan birga, onasining biror bir hunarga egaligi, ro'zg'orining ozodaligi ham o'rganilgan. Bu o'zbek xalqining etnik

<sup>41</sup> Xamroxonova S. Ingliz, o'zbek va rus tillarida "mehmondo'stlik" tushunchasini ifodalovchi maqollarning lingvomadaniy xususiyatlari. Yosh tadqiqotchi. Vol. 2 No.5. – Toshkent, 2023. – B. 201.

<sup>42</sup> Achilova D. O'zbek va fransuz xalq maqollarining milliy xususiyatlari. Journal of humanities. No: 19. (02) 2025. – B.16.



madaniyatiga oid bir jihat bo‘lib, uzoq yillardan buyon hozirgi vaqtgacha saqlanib kelmoqda.

Tilda maqollarning ko‘pligi shu til leksikasi naqadar boy ekanligining yaqqol isboti sifatida namoyon bo‘ladi. Maqollar yillar va asrlar mobaynida insonning odatiy vaziyatlaridan orttirilgan tajribalariga suyangan holda chiqargan xulosa sifatidagi fikrlariga asoslanadi. Bundan ma‘lum bo‘ladiki, har bir maqolning paydo bo‘lishi, rivojlanishi, bundan tashqari ularni jamoa tomonidan jonli muloqot muhitiga olib kirilishi va ommalashtirilishi uzoq davr talab qiladi<sup>43</sup>. Faqatgina xalq tomonidan qabul qilingan va o‘z isbotini topgan maqollargina xalq og‘zaki ijodining bir namunasi sifatida avlodlar-avlodlarga yetkaziladi. Xalqimiz orasida “Boshi og‘riganning oldida boshim dema” maqoli ana shunday uzoq tarixga ega bo‘lib, tavsiya, maslahat ruhini ifodalaydi. Maqol mazmunidan “senga dardini aytayotgan kishiga sen ham dardingni aytma, dardi bor kishining dardini eslatma” kabi mohiyatlar ifoda topgan bo‘lib, o‘zbeklarga xos hamdardlik xarakterini ko‘rsatadi.

Maqollar xalq og‘zaki ijodining yorqin mahsuli hisoblanadi. Ular shaklan ixcham, ammo chuqur mazunga ega bo‘lgan janrlardan biridir. Aytishimiz mumkinki, maqollarning vujudga kelishiga sabab, xalqning ko‘p asrlar davomida, insonlarning hayotiy kuzatishlari, turli siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy tajribalariga asoslanganligini ko‘rishimiz mumkin. Shuning uchun ham har bir maqolning mazmun-mohiyatida ma‘lum bir xalqning ko‘p asrlik o‘ziga xos tajribasi va hayotiy-tarbiyaviy jihatlari aks etadi. Xalq maqollari uzoq yillar davomida turmush tajribalarida va turli xil sharoitlarda bir necha marotalab sinovdan o‘tib bizgacha yetib kelgan<sup>44</sup>.

Maqollarda lingvomadaniy va etnolingvistik jihatlarning mavjudligi aynan shu xalqona qarashlarning tilda aks etish jihatlari ifodalaydi. Ular bir tomondan milliy madaniyat va an‘analarning in‘ikosi bo‘lsa, boshqa tomondan, insoniyat uchun umumiy bo‘lgan qadriyatlarni ifodalaydi. Bu esa turli madaniyatlar o‘rtasida umumiylik va farqlarni aniqlashda maqollarni o‘rganishning muhimligini ta‘kidlaydi. Maqollarni o‘rganishda lingvokulturologik yondashuv tilshunoslik va madaniyatshunoslikning uzviy bog‘liqligini ta‘kidlaydi. Ular faqat til birliklari sifatida emas, balki milliy mentalitet va madaniyatning aks etishi sifatida o‘rganilishi kerak. Maqolalarning lingvokulturologik tahlili ularning semantik, madaniy, tarixiy va ijtimoiy jihatlari ochib beradi<sup>45</sup>.

Fikrlarimizni asoslash uchun “Ot tepmas, it qopmas dema” maqolining tahlilini keltiramiz.

<sup>43</sup> Achilova D. O‘zbek va fransuz xalq maqollarining milliy xususiyatlari. Journal of humanities. No: 19. (02) 2025. – B.16.

<sup>44</sup> Xasanova G. Maqollarning lingvomadaniy xususiyatlari. Tilshunoslikda antropotsentrizm: yangi yondashuvlar va tadqiqotlar. – Toshkent, 2026. – B. 926.

<sup>45</sup> Fayziyeva A. Maqollarni o‘rganish bilan bog‘liq lingvokulturologik yondashuvlar. Ilm-fan xabarnomasi. 9-son, 2024. – B. 625.



Ma'lumki, ot va it qadimdan chorvachilik bilan shug'ullanib kelgan, ko'chmanchi hayot kechirgan o'zbek xalqining doimiy hamrohi, ulovi bo'lgan. Madaniyatni, shu madaniyat tegishli bo'lgan xalqning tarixini ifodalovchi birliklar, xususan, maqollar ham, yuqorida aytib o'tganimizdek, shu xalqning kundalik turmush tarzida foydalanadigan narsa-buyum, kiyim-kechak, oziq-ovqat, hayvonlar va parrandalar vositasida yuzaga chiqariladi. Huddi shu jihatdan ot va it semasi orqali hosil qilingan maqolda ushbu hayvonlarning o'ziga xos xarakteridan kelib chiqib, ogohlantirish mazmuni fodalanoqda. Mazkur hayvonlarning tabiatida bo'lgan qopish va tepish har qanday vaziyatda ham saqlanib qolishi va kutilmaganda yuzaga chiqishi uqtirilmoqda. Dastlab o'z ma'nosida kelgan bu parema keyinchalik ko'chma ma'no ifodalab, insonga ko'chgan. Ya'ni, har qanday yomon odatga ega inson istalgan vaziyatda shu harakatini ishlatishi, yomonlik qilishi mumkin. Shunga ko'ra mazkur maqol bugungi kunda har ikkala holatda ham, o'z ma'nosi va ko'chma ma'noda ham qo'llanilishi mumkin.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, maqollarda eng avvallo xalqning tarixiy dunyoqarashi, an'anaviy urf-odatlar va o'ziga xos madaniyati namoyon bo'ladi. Xalq og'zaki ijodining boshqa namunalarida bo'lgani kabi maqollarda ham xalqning orzu-umidlari, maqsadlari, pand-nasihatlar aks etadi. Lingvistik nuqtayi nazardan maqollardagi ayni shu jihatlar qanday til birliklari va madaniy kodlar vositasida namoyon bo'layotganligini tahlil qilish mazkur til birliklarining qanday lingvistik imkoniyatlarga ega ekanligini aniqlashga yo'l ochadi. Bu esa tilshunosligimizda yana bir paremiologik birlikning hali o'rganilmagan o'ziga xos jihatlarini aniqlash imkoniyatini yaratadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xamroxonova S. Ingliz, o'zbek va rus tillarida "mehmondo'stlik" tushunchasini ifodalovchi maqollarning lingvomadaniy xususiyatlari. Yosh tadqiqotchi. Vol. 2 No.5. – Toshkent, 2023. – B.201.
2. Achilova D. O'zbek va fransuz xalq maqollarining milliy xususiyatlari. Journal of humanities. No 19. (02) 2025. – B.16.
3. Xasanova G. Maqollarning lingvomadaniy xususiyatlari. Tilshunoslikda antropotsentrizm: yangi yondashuvlar va tadqiqotlar. – Toshkent, 2026. – B. 926.
4. Fayziyeva A. Maqollarni o'rganish bilan bog'liq lingvokulturologik yondashuvlar. Ilm-fan xabarnomasi. 9-son, 2024. – B. 625.